

бинома «тождества - различия» являются утверждение и отрицание в простом предложении, согласие и несогласие в диалогической речи, соединительные и несоединительные отношения в монологическом тексте.

Все это актуализирует необходимость кропотливого обследования мало привлекавшего внимание, многообразного и сложного и в целом пока недостаточно понятого синтаксического явления как в русском, так и в каракалпакском языках.

Литература

1. Варрон Марк Теренций. О латинском языке. // В кн.: Античные теории языка и стиля. – М.–Л.: «ОГИЗ», 1936.
2. Здорикова Ю.Н. Сложносочиненные предложения с союзом но и соотносительные с ними текстовые построения: Дис. ... канд. филол. наук. – Иваново: 1999.
3. Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и о его влиянии на духовное развитие человеческого рода. // Хрестоматия по истории языкознания XIX–XX вв. (Сост. В.А. Звегинцев). – Москва: «Учпедгиз», 1956.
4. Золотова Т.А. К построению функционального синтаксиса русского языка. // Проблемы функциональной грамматики. – Москва: 1985. – С. 87-98.
5. Ибн-Сина. Книга о душе. Избранные философские произведения. – Москва: «Наука», 1980.
6. Кованцева Л.В. Аксиологические значения в семантической структуре сложносочиненных предложений современного русского языка: Дис. ... канд. филол. наук. – Иваново: 1990.
7. Қайыпбергенев Т. Қарақалпақ дәстаны. Маман бий эпсанасы. – Нөкис: «Билим», 2018.
8. Ларина Е.А. Сложносочиненные предложения в русском литературном языке второй половины XVIII века: Дис. ... канд. филол. наук. – Иваново: 1987.
9. Лобанова Т.А. Синтаксические условия функционирования слова НО в простом предложении. – Иваново: 2000.
10. Мамбетов К. Бозатаў: Роман хэм Повестлер. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1986.
11. Сейитов Ш. Ығбал сокпақлары. Роман. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1975.
12. Сейитов Ш. Халқабат. Роман. Биринши китап: Шар бузыў. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1977.
13. Сейитов Ш. Халқабат. Роман. Екинши китап: Машақатлы асырымлар. – Нөкис: «Қарақалпақстан».
14. Ф. де. Соссюр. Труды по языкознанию (переводы с французского под ред. А.А. Холодовича). – Москва: «Прогресс», 1977.
15. Холодов Н.Н. За древними тайнами русского слова «И» – тайны иных масштабов. – Иваново: Ивановский гос. университет, 1991.
16. Холодов Н.Н. О проблеме тождеств и различий в науке о языке. // Ивановский государственный университет: Юбил. сб. науч. ст. Иваново, 1998. – С. 38-62.

РЕЗЮМЕ. Мақола қарақалпақ тилида бир хил таркибдаги бирикмасиз мураккаб жумлаларни (бундан буюн матнда БМЖ) ўзига хослик ва фарқлар муаммоси нуқтаи назаридан ўрганишга бағишланган.

РЕЗЮМЕ. Статья посвящена вопросу изучения бессоюзных сложных предложений (далее БСП) однородного состава в каракалпакском языке в аспекте проблемы тождеств и различий.

SUMMARY. The article is devoted to the study of homogeneous compound sentences without conjunctions (hereinafter referred to as CWS) in the Karakalpak language in terms of the problem of identities and differences.

INSONNING INTELLEKTUAL QOBILIYATINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

A.A.Xudaybergenov – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: frazeologik birliklar, madaniy komponent, milliy-madaniy axborot, frazeoguruh, konsept, struktura, semantika, antroposentrizm.

Ключевые слова: фразеологические единицы, культурный компонент, национально-культурная информация, фразеогруппа, концепт, структура, семантика, антропоцентризм.

Key words: phraseological units, cultural component, national-cultural information, phraseological group, concept, structure, semantics, anthropocentrism.

Kirish. Hozirgi davr tilshunosligi tadqiqotlariga xos muhim xususiyatlardan biri shundaki, ularda milliy-madaniy aspektlarni batafsil o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki til madaniyatning asosiy komponenti bo'lib, u an'anaviy xarakterga ega bo'lgan madaniy-tarixiy ma'lumotlarni, hozirgi davrga xos bo'lgan ko'pgina faktarlarni aks ettiruvchi va o'zida saqllovchi muhim fenomendir. Til milliy madaniyatning oynasi, uni asrab saqllovchi hodisadir. V.fon Gumboldt konsepsiyasiga ko'ra, madaniyatning milliy xarakteri, o'sha xalqning olamni o'zicha idrok etishiga qarab uning tilida aks etadi. «Har bir til xalq mansub bo'lgan atrof-muhitni aks ettiradi. Ushbu doira chegarasidan boshqa doiraga o'tgan chog'dagina u o'zgaradi», degan edi V.Gumboldt. Tilda insonni o'rab turgan real dunyo, uning real hayot sharoiti, har bir xalqning ijtimoiy ongi, mentaliteti, milliy xarakteri,

turmush tarzi, qadriyatlari tizimi, uning dunyoqarashida o'z aksini topadi. Ushbu bilimlar majmui o'rganilayotgan til dunyosini tashkil etadi, unga kirmasdan, tanishmasdan til hodisalarini to'la tushunish mumkin emas [4:382].

Metod. Ilmiy maqolada qiyosiy-tipologik, komponent, semantik va lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi. Manbalar sifatida A.Makkaining “Idiom Structure in English”, shuningdek, U.Veinrixning Problems in the Analysis of Idioms: Substance and Structure of Language nomli mehnatlaridan misollar tahlil uchun tanlab olindi.

Ma'lumki, har bir xalqning milliy-spesifik xususiyatlarini namoyon etuvchi ma'lumotlari va madaniyati manbalariga quyidagilar kiradi:

1. An'analari (yoki madaniyatining turg'un elementlari) rasm-rusmlari, urf-odatlari.

2. An'analari bilan tig'iz bog'langan maishiy madaniyati.

3. Har kungi doimiy xulq-atvorlari (madaniyat vakillari odatlari, sosiumda (jamoada) qabul qilingan muloqot normalari; shuningdek) lingvomadaniyat jamoalari foydalanadigan mimika va pantomimik kodlar.

4. U yoki bu etnos an'analarini aks ettiruvchi badiiy madaniyat.

Frazeologik birliklar milliy-madaniy axborotni tashuvchi eng muhim manbalardan biridir, ularni tahlil etish o'ziga xos kognitiv jarayon bo'lib, u xalq madaniyati, an'analari, urf-odatlari, olamning oddiy manzarasi asosida tashkil qilingan an'anaviy modellari haqidagi bilimlarni hisobga olgan holda dekodlash (qayta tushunish, qayta sirini bilish) jarayonidir.

Frazeologizmlar xalqning madaniy-milliy o'zini anglashini ko'rsatishda va o'zini frazeologizm vositasida, ya'ni xalqning madaniy-milliy dunyoqarashini obrazli ifoda etib identifikatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Frazeologizmlar obrazli mazmunining milliy madaniyat kategoriyalari, konseptlari, mifologemalari, stereotiplari va etalonlari bilan bog'lanishini aniqlash va uni material, ijtimoiy va ma'naviy madaniyat makonlarida sharhlash ushbu obrazning madaniy ma'nosini ochib berishga yordam beradi [6:197].

U.Veynreyx ning ta'kidlashicha (U.Weinreich, 2004) «obyektiv belgilar ba'zi holatlarida baholash shkalasi vaqt omili bilan aloqador» bo'ladi, deb aytadi. Ushbu fikr inson intellektual qobiliyatlarini o'rganishda dolzarb hisoblanadi, chunki mazkur qobiliyatning shakllanishi bevosita vaqtga bog'lik: «intellekt» tushunchasi insonning bilishi va fikr qilishi asosida qo'lga kiritgan qobiliyatlari bo'lib, rivojlantirish natijasida uni taraqqiy ettirish, yaxshilash, kuchaytirish mumkin. Bu fakt o'rganilayotgan ingliz tili frazeologizmlarini tahlil etish asosida kuzatildi: *have an old head on one's shoulders* [7:208].

Natijalar. Tahlil natijasida ingliz va qoraqalpoq tillarida insonning intellektual qobiliyatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar bir nechta frazeo-semantik kichik guruhlariga ajratildi. Ushbu guruhga «insonning fikrlash qobiliyatini» ifodalovchi FB lar kiradi.

Bir necha FB «aqliy qobiliyatlar» umumlashgan semalariga ega. Masalan: *one's (the) upper storey(s)* – «aql, miya»; *turn of mind* – «aqlning qirralari»; *gray (grey) matter* – «sariq modda, miya qismlari, miya»; *boshdagi podshoh (kimningdir)* – «aql, ong, fikr, tasavvur».

Umumiy ma'nosi «axmoqlik» frazeo-semantik kichik guruhiga mansub bo'lgan frazeologizmlar katta miqdorlarni tashkil etadi:

have got apartments to let; not to have (got) a brain in one's head; a proper Charley (Charlie, Charley, Charlie): cousin Betty; dead from the neck up (amer. dead above the ears); dump Dora; long hair and short wit; xudo qarg'agan, qayin to'nkasi, xudoning nodon bandasi; miyasi joyida emas, dumbul [5:177].

Ushbu kichik guruhda muayyan miqdordagi maqollar ro'yxatga olingan: *a foots bolt may sometimes hit the mark; as the foot thinks, so the belt clicks; a food and his money are soon parted; axmoqqa doim omad yor; sababsiz kulgu-axmoqliq belgisi va b.*

«Aql, donolik» ma'noli va ijobiy baho konnotatsiyasiga ega frazeo-semantik kichik guruhiga quyidagi FB lar taalluqlidir: *all there; have more brains in one's little finger than one has in his whole body; clever Dick: a clever dog; a clever head; boshda podshohi bilan; miyasi butun; elkasida kallasi bor; kallasi bilan; yorqin bosh.*

Ushbu misollar «cheklangan», «uzoq bo'lmagan» ma'noli frazeo-semantik kichik guruhga tegishli FB lardir: *be (run) in blinkers (wear blinkers); have a bad (no head) for smth.; a one-track mind; burnidan uzoqni ko'rolmaslik; poroxni o'ylab topish mumkin emas, xudo qarg'agan, yulduzlarni osmondan ovlamaydilar.*

«Bilim, bilimni o'rganishga qobiliyat» umumiy semasiga ega bo'lgan frazeo-semantik kichik guruhga quyidagilar kiradi: *menial furniture (furniture of (one's) mind); a walking encyclopedia; have smth. at one's fingers' ends (finger-ends, finger tips, finger-tips); walking dictionary; have swallowed a (the) dictionary; harakatchan (yuradigan) universitet; besh bormog'idek bilmoq* [2:35].

Munozara. Frazeologiya hosil bo'lishida inson omili katta rol o'ynaydi, chunki ko'pgina frazeologizmlar inson va uning faoliyatining har xil sohalari bilan bog'lik. Ushbu omil muloqotning muhim elementi sanaladi.

Bundan tashqari, inson tashqi dunyo obyektlariga insoniy belgilar baxsh etishga intiladi (jonsiz predmetlarga ham).

Insonning aqliy faoliyatini ifodalovchi FB lar kichik guruhiga ushbular taalluqli: *chew the cud (the food) (of fancy, reflection, etc); look before and after; put that and that together (put this and that together, put two and together); think aloud (think out loud); think better; think twice; absorbed (engrossed, lost) in thought (in one's own thought); collect one's thought; miyasi bilan harakatda bo'lmoq; miyasiga joylab olmoq (ongiga); fikrlarini to'plamoq; aqlini yo'naltirmoq (miyasi bilan); fikrini charxlamoq (ongida); aqlida (miyasida) saqlamoq (nimanidir). Shunisi ham qiziqki, ingliz tili birnecha frazeologizmlari kinoya mazmunli ottenkasiga ega, ya'ni ular salbiy baholash konnotatsiyasi bilan ifodalanadi: (masalan: *too clever by half; clever Dick; (as) solemn (wise) as an owl.**

All there FB salbiy, (*not (quite) all there o'z aqlida emas, vintigi etishmaydi*) ma'nolarida qo'llaniladi.

«Elkasida boshi bor» (aqli, mulohazali, ongli bo'lmoq) va «boshida podshohi bilan» (nihoyatda aqli, mushohadali, tushunchali) frazeologizmlari bir vaqtning o'zida ikkita frazeo-semantik kichik guruhga taalluqli bo'ladi. Ya'ni «aql, donolik» va «onglilik, mulohazalik» ma'noli frazeologizmlar ikki kichik guruhga zo'rlab kiritilgandek taassurot qoldiradi.

«Boshi bilan» frazeologizmi «nihoyatda aqli, jur'atli, qobiliyatli» ma'nolari bilan «qobiliyatlilik, iste'dodlilik, iqtidorlilik» kichik guruhiga mansub bo'ladi.

Ikkita qoraqalpoq frazeologizmi «bir bosh yuqori»-«ancha aqli, tajribali, xabarli» va b. ma'nolari bilan biror shaxsdan biror jihatlari bilan ustunligi bildiriladi (bir bosh yuqori) ma'nosi bilan qisman ajratilgan frazeo-semantik kichik guruhga kiradi. Shuningdek, (*as*) *solemn (wise) as an owl* FB ligining konnotativ komponenti frazeologik ma'nosini aniqlashda qiziqish uyg'otadi. Mazkur frazeologizmning emotsional bo'yoqdorligi-kinoyaviy hazil, xarakteri, baholash konnotatsiyasi- qat'iy salbiy ma'no ifoda etmaydi, aksincha bu uning tarkibiga kirgan komponentlari semantikalarining «o'zaro to'qnashuvi» natijasida paydo bo'lgan- *solemn (wise) as an owl* (ingliz tilidagi uchta FB lar «owl» komponenti bilan salbiy bahosiga ega. qiyoslaymiz: (*as*) *grave as an owl* – «xafaqon, qovog'ini solgan, qayg'uli»; *qovog'ini solib qaramoq; va night owl, amer. so'zlashuv* – «yarim kechalik, tungi kapalak (engil tabiat)).

As solemn (wise) as an owl frazeologizmi stillararo FB larga kiradi, uning ekspressiv komponenti konnotasiyasi ifodalanmagan, ijobiy baholash konnotasiyasining yo'qligi esa kontekst bilan tasdiqlanadi.

Inson intellektual qobiliyatlarini ifodalovchi FB larni tahlil etish shunga imkoniyat berdiki, mazkur fenomenni baholash bo'yicha ingliz tilida yana bir kriteriy ajratiladi. Ko'pgina hollarda inson intellektini baholash zamirida sog'lom/kasal qarama-qarshiligi yotadi. Ijobiy belgi zonasida inson belgilarining shunday xillarini, masalan, «aql bilan ish qilmoq, sog'lom aql» va «aqliy faoliyat»: *be of sound mind – sog'lom aqlda bo'lish. Intellektning etishmasligi, aqliy jarayonlarning past tezlikdagi holati yoki insonda normal aqliy faoliyatning bo'lmasligi ko'pgina hollarda uning kasalligi bilan assosiasiya qilinadi (vaqtinchalik yoki doimiy), yoki anomal rivojlanishi bilan: be out of one's senses- aqlidan ayrilish, jinni bo'lish, miyasi joyida bo'lmaslik va h* [1:16].

Inson intellektual qobiliyatlarini ifoda etuvchi frazeologizmlarning baholash komponentini o'rganish jarayonida quyidagi baholash vositalaridan foydalanilganligi ko'zga tashlandi: a) sifat va ravish:

clever, intelligent, quick, stupid, mad, slow, sharp, aqli, ongli, aql bilan, axmoq, tentak va b.) inson tana a'zolari va organlarini ifoda etuvchi otlar: head, finger, eye, arse, ears; bosh, miya, ko'z, til, barmoqlar, peshona, burun, quloq; v) atoqli otlar: Aleck, Betty, Charley, Dick, Dora, Tom; Vanka; g) zoonim va fitonimlar: ass, bat, bee, donkey, goose, awl, bananas, nuts; qo'y, cho'chqa, tovuq, to'nka, tayoq, somon, qarag'ay (el, bog', dub, qayin);

Frazeologik vositalar bilan inson intellektual qobiliyatlarini baholashning etnomadaniy spesifikasi ingliz tili materiallarida quyidagicha namoyon bo'ladi (ularning ba'zi bo'limlarini sanab o'tamiz).

- aqliy faoliyatining natijaliligi: inglizlar uchun belgini tez anglab yetish, shuningdek, yana faoliyatning samaraliligi, muvaffaqiyatlilik dolzarb hisoblanadi;

- o'tkir aqlilikni ingliz tilida ayyorlik, epchillik bilan bog'laydilar.

Intellektual qobiliyatlar va aqliy faoliyat ba'zan gender belgilari bilan ham baholanadi: erkak kishi aqli, epchil (fikir kengligi, olijanob/zolim, daho), ayol-axmoq, unda qisqa xotira (qizlik xotirasi, xotinlarning sochi uzun, aqli kalta);

Ingliz tilida aqli odam- u, eng avvalo, amaliyotchi odam bo'lishi shart. Milliy spesifik belgilarga quyidagi faktlarni kiritish mumkin: har ikki tilda ham ba'zi frazeosemantik kichik guruhlariga oid FB larning notekis taqsimlanganligi; faqat bir til FB lariga mansub bo'lgan kichik guruhlarining borligi; FB semantik belgilari yig'indsida muayyan farqlarning borligi, shuningdek, bir frazeosemantik kichik guruhga kiruvchi FB lar komponentlari konnotatsiyalarida ma'lum farqlarning bo'lishi va shu kabi lar [3:23].

Xulosa. Shunday qilib, frazeologizmlarning madaniy-milliy ma'nolari aspektiga bag'ishlangan lingvomadaniy tadqiqotlar, tildagi boshqa lisoniy mohiyatlar kabi mentalitetning xarakterlovchi belgilari haqidagi ma'lumotlarni ham o'ziga qamrab olishi zarur, ularning mazmuni madaniy konnotatsiyalarda namoyon bo'ladi. Bu esa, biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, lingvomadaniyatshunoslikning bazaviy tushunchalaridan biridir.

Til-madaniyat hayotiyiligining spesifik usuli, madaniy kodlar shakllanishining asosiy omili. Til belgilari-frazeologizmlar-madaniyat belgilari funksiyasini bajara oluvchi va shu bilan madaniyatning asosiy qurilmalarini namoyon etuvchi vosita hamdir.

Frazeologizmlar va xalq milliy madaniyati orasida to'g'ridan to'g'ri aloqa mavjud. Tilda aynan shunday obrazli ifodalar mustahkamlanadi va frazeologizasiya etiladiki, ular xalqning madaniy-milliy etalonlari, stereotiplari, mifologemalari bilan assosiasiya qilinadi va ular nutqda qo'llanilganda u yoki bu lingvomadaniyat jamoasi mentalitetiga xarakterli jarayonlarni qayta yuzaga chiqaradi.

Adabiyotlar

1. Арсентева Э.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единств выражающих характер человека в английском и русском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва: 1984.
2. Багаутдинова Г.А. Человек во фразеологии: Антропоцентрический и аксиологический аспекты: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Казань: КГУ, 2007.
3. Волобуева О.Н. Концептуальное поле. «Человек и его интеллект» в русской и английской фразеологии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тюмень: ТГУ, 2011.
4. Гумбольдт В.фон. Избранные труды по языкознанию. – Москва: «Наука», 1985.
5. Федулянская Т.Н. Английская фразеология. – Архангельск: АГУ, 2000.
6. Makkai A. Idiom Structure in English. – The Hague, Mouton, 2002.
7. Weinreich U. Problems in the Analysis of Idioms: Substance and Structure of Language. – University of California Press, Berkley and Los Angels, 2004.

REZYUME. Mazkur maqolada frazeologik birliklarning dunyo tilshunosligidagi o'rni, olimlar tomonidan unga berilgan ta'riflar va olamning lisoniy manzarasidagi frazeologizmlarning lingvokulturologik nuqtayi nazardan milliy-spesifik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tahlillar o'rganiladi va inson xarakterini, ya'ni, uning intellektual qobiliyatini ifodalovchi frazeologik birliklarni o'rganishdan iborat.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматривается роль фразеологических единиц в мировой лингвистике, анализируются определения, данные им учёными, а также проводится исследование, направленное на выявление национально-специфических особенностей фразеологизмов в языковой картине мира с лингвокультурологической точки зрения. Работа посвящена изучению фразеологических единиц, выражающих характер человека, а именно его интеллектуальные способности.

SUMMARY. This article deals with the role of phraseological units in world linguistics, the definitions given to them by scholars, and analyses aimed at identifying the national-specific features of phraseologisms in the linguistic worldview from a linguocultural perspective. The study focuses on phraseological units that express human character, specifically those representing intellectual abilities.